



THE SYSTEM OF STATE ADMINISTRATION AND ADMINISTRATIVE-RELIGIOUS OFFICES IN THE KHIVA KHANATE

Islom Korjovov

Jizzakh State Pedagogical University

Faculty of History, 2nd-year student

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khiva Khanate, state administration, khan's authority, administrative positions, religious positions, inoq, qushbegi, mehtar, naqib, qazi, mufti.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article examines the system of state administration in the Khiva Khanate in the 19th century, the activities of court and administrative officials, as well as religious officials. It considers the territorial and administrative structure of the Khiva Khanate and analyzes the functions of its main officials, including inoq, naqib, ataliq, qushbegi, vizier, mehtar, divanbegi, yasavulboshi, mahram, mingboshi, yuzboshi, and onboshi. Information on the state and religious positions in the Khiva Khanate is presented on the basis of the works of travelers and researchers, particularly Vambery and Muravyov. The study demonstrates the interrelationship between political, administrative, and religious governance in the Khiva Khanate, as well as the central role of the khan's authority in the state system.

XIVA XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI VA MA'MURIY-DINIY MANSABLAR

Islom Qorjovov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, davlat boshqaruvi, xon hokimiyati, ma'muriy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining XIX asrdagi davlat boshqaruvi tizimi, saroy va ma'muriy mansablar hamda

mansablar, diniy mansablar, inoq, qo'shbegi, mehtar, naqib, qozi, muftiy.

diniy lavozimlarning faoliyati yoritilgan. Unda Xiva xonligining hududiy-ma'muriy tuzilishi, shuningdek, xonlikdagi asosiy mansabdorlar — inoq, naqib, otaliq, qo'shbegi, vazir, mehtar, devonbegi, yasovulboshi, mahrem, mingboshi, yuzboshi va o'nboshilarning vazifalari tahlil qilingan. Xiva xonligidagi davlat va diniy mansablar haqidagi ma'lumotlar Vamberi, Muravyov, kabi sayyoh va tadqiqotchilarning asarlari asosida yoritilgan. Tadqiqot Xiva xonligida siyosiy, ma'muriy va diniy boshqaruvning o'zaro bog'liqligini hamda xon hokimiyatining davlat tizimidagi markaziy o'rnini ko'rsatib beradi.

СИСТЕМА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ И АДМИНИСТРАТИВНО-РЕЛИГИОЗНЫЕ ДОЛЖНОСТИ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

Ислом Коржовов

Джизакский государственный педагогический университет

Факультет истории, студент 2-го курса

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хивинское ханство, государственное управление, ханская власть, административные должности, религиозные должности, инак, кушбеги, мехтар, накиб, кази, муфтий.

Аннотация: В данной статье освещаются система государственного управления Хивинского ханства в XIX веке, деятельность дворцовых и административных должностных лиц, а также религиозных деятелей. Рассматривается территориально-административное устройство Хивинского ханства, а также анализируются функции основных должностных лиц ханства — инака, накиба, аталыка, кушбеги, визиря, мехтара, диванбеги, ясавулбаши, махрама, мингбаши, юзбаши и онбаши. Сведения о государственных и религиозных должностях Хивинского ханства освещаются на основе трудов путешественников и исследователей, в частности Вамбери и Муравьева. Исследование демонстрирует взаимосвязь политического, административного и религиозного управления в Хивинском ханстве, а также центральную роль ханской власти в государственной системе.

Kirish. Xiva — Oʻrta Osiyodagi eng qadimiy qalʼalardan biridir. U Xiva xonligining poytaxti hisoblangan. Xiva xonligi XII asrdagi buyuk Xorazmshohlar davlatining oʻrnini egallagan. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi bilan chegaradosh boʻlgan, gʻarbda Kaspiy dengiziga tutashgan, shimolda esa qozoq juzlari yerlari bilan qoʻshni boʻlgan.

Xiva xonligi tarkibiga Qoʻyat (Kat), Yangi Urganch, Hazorasp, Qoʻngʻirot va Xoʻjayli shaharlari kirgan boʻlib, ular bekliklarning markazlari hisoblangan. Xiva xonligi 18 ta beklik va 2 ta noiblikka boʻlingan. Ularni xon tomonidan tayinlangan bek va toʻralar (mansabdorlar) boshqargan.

Xiva xonligi Qoʻngʻirotlar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Oliy hukmdor xon hisoblangan. Xon cheklanmagan maʼmuriy va harbiy hokimiyatga ega boʻlgan. Oliy hukmdorning qarorgohi Xivada joylashgan. Shahar ikki qismga boʻlingan: ichki qism — Ichan qalʼa boʻlib, uning maydoni 26 gektar va u YuNESKOning Jahon meʼrosi roʻyxatiga kiritilgan yirik ochiq osmon ostidagi muzeyqoʻriqxona hisoblanadi. Tashqi, mudofaa devori bilan oʻralgan qism esa — Dishan qalʼa deb atalgan. Ichan qalʼani tashqi dushmanlardan qoʻriqlash va himoya qilish uchun qurilgan. U 1842-yilda Xorazm xoni Olloqulixon tomonidan uch yil mobaynida barpo etilgan. Dishan qalʼani aslida 10 ta darvozasi boʻlgan (jumladan Hazorasp, Qoʻsh, Gandumiyon va boshqalar), ulardan bugungi kunga kelib faqat ayrimlari saqlanib qolgan.

Xonlik muayyan mansab va lavozimlar asosida boshqarilgan. Xivada boʻlgan koʻplab rus sayyohlari oʻz asarlarida xonlikdagi mansabdorlar lavozimlarini sanab oʻtganlar. Masalan, 1863–1864-yillarda Xivada boʻlgan vengriyalik sayyoh Vamberi maʼlumotlariga koʻra, davlatda quyidagi hukmron tabaqa va maʼmuriy tizim mavjud boʻlgan :

1. Xon yoki podsho (padshoh);
2. Inoq;
3. Naqib;
4. Bi(y);
5. Otaliq;
6. Qoʻshbegi yoki vazir;
7. Mehtar;
8. Yasovulboshi;
9. Mahramlar;
10. Mingboshi;
11. Yuzboshi;
12. Oʻnboshi.

Vamberining soʻzlariga koʻra, ulamolar yoki ruhoniylar, ularning oliy rahbari naqib boʻlib, quyidagi toifalarga boʻlingan:

Qozi kalon — butun xonlikdagi oliy sudya va sud ishlarining boshligʻi;

Qozi oʻrdu — yurishlar vaqtida xonga oliy sudya sifatida hamrohlik qiluvchi shaxs;

Aʼlam — besh nafar muftiyning boshligʻi;

Rais — maktablarni tekshirgan va diniy qonunlarga rioya qilinishini nazorat qilgan;

Muftiy — har bir yirik shaharda bittadan boʻlgan;

Oxund — boshlangʻich maktab professori yoki oʻqituvchisi.

Muallifning taʼkidlashicha, dastlabki uchta mansabdor yuqori martabali amaldorlar qatoriga kirgan va lavozimga kirishganlarida xondan katta miqdorda mablagʻ olganlar. Keyingi uch nafari esa vaqfdan (xayriya maqsadlari uchun ajratilgan mulk) yetarli miqdorda maosh, mahsulot va pul olganlar .

Xiva xonligida shunday odat mavjud boʻlgan: xon har yili Qurbon hayiti (musulmonlarning diniy bayrami) va Navroʻz (21-mart) bayramlarida ularga turli xil sovgʻalar bergan. Muallif Xiva ulamolarini Buxoro ulamolari bilan taqqoslaydi va Xiva ulamolari Buxoro ulamolarichalik ilmi ekanligi bilan mashhur boʻlmasa-da, ular unchalik magʻrur va kibrli emasligini taʼkidlaydi. Ularning koʻpchiligi oʻz yurtdoshlarini imkon qadar maʼrifatli qilishga va ularning jangovar qonun-qoidalaridagi qoʻpollikni yumshatishga chin dildan intilgan .

1841-yilda Xivada boʻlgan rus elchisi Nikiforov Xiva xonligidagi mansabdorlarning lavozimlarini tasvirlab bergan. Uning soʻzlariga koʻra, xonlikdagi eng muhim lavozim mehtar boʻlgan. U xonlikning janubiy qismini boshqargan va tashqi ishlar bilan shugʻullangan. Nikiforovning Xivada boʻlgan davrida Qoʻshbegi xonlikning shimoliy qismini boshqargan. N. Zalesovning aytishicha, qoʻshbegi va mehtar lavozimlari avloddan-avlodga oʻtgan .

Xonlikdagi yana bir mansab — Devonbegi edi. Alloqulixon hukmronligi davrida bu mansab egalari xon uchun juda muhim shaxslarga aylangan. Devonbegi, shuningdek, xonga soliq toʻlovchi savdogarlar va chet elliklar orasida ham muhim shaxs boʻlgan.

Rus sayyohlaridan biri boʻlgan M. Ivanin xonlikdagi mansablar va mansabdorlar haqida yanada batafsil maʼlumot bergan.

Xonlikdagi birinchi amaldor vazir yoki qoʻshbegi deb atalgan. U kanallarni tozalash ishlarini tashkil qilgan va ishchilarni boshqargan. Shuningdek, u xonlikning shimoliy qismida — Qoʻngʻirotdan Xiva va Yangi Urganch shaharlarigacha boʻlgan hududda soliqlarni yigʻgan.

Zalesov Xivada boʻlgan paytda mehtar xonlikning janubiy qismini boshqargan. Biroq Ivanin Xivaga kelganida, xonlikning bu qismi inoqlar tasarrufida boʻlgan. Bu vaqtda mehtar

maoshlarni taqsimlagan, qo'shin uchun xizmat vazifalarini belgilagan va qo'shin hisobini yuritgan.

Odatda inoqlar to'rt nafar bo'lgan. Ularning ikkitasi xonning eng yaqin qarindoshlari, qolgan ikkitasi esa xon bilan bir urug'dan bo'lishi kerak edi.

Mahram (ya'ni ikkinchi darajali mahram yoki mahramning yordamchisi) lavozimida o'tirgan shaxs Xivaga olib kelinadigan karvonlardan hamda bozorlarda sotiladigan tovarlardan boj yig'gan. Biylar tinchlik davrida o'zlariga topshirilgan shahar va hududlarni boshqarganlar. Qo'shbegi buyrug'iga binoan ular ushbu shahar va hududlar aholisidan soliqlarni yig'ganlar.

Bojmon — shaharlarda va bozorlarda boj yig'ish bilan shug'ullangan mansabdor bo'lgan.

Yasovulboshi xonlik kanallaridagi ishlarni nazorat qilgan.

Naqib — ruhoniylarning boshlig'i bo'lib, u doimo sayyidlar, ya'ni Muhammad payg'ambarning avlodlaridan saylangan. N. Muravyov Xiva xonligi saroyidagi mansablar soni juda ko'p bo'lganini aytadi. Uning yozishicha, saroydagi mansabdorlar soni xonga saroy amaldorlarining qanchalik yoqishiga bog'liq bo'lgan.

Sartlar orasidan birinchi vazir etib Yusuf Mehtar Og'a tayinlangan. U birinchi vazir sifatida xon xazinasini boshqargan, daromad va xarajatlarni nazorat qilgan. U hatto chet el elchilarini ham qabul qilgan.

Muravyovning so'zlariga ko'ra, xon Yusuf Mehtarni o'zbeklar va sartlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida vazir etib tayinlagan. O'sha vaqtda o'zbeklar sartlar ustidan hukmronlik qilishga intilganlar.

Ikkinchi vazir Medraim Qo'shbegi bo'lgan. U kelib chiqishiga ko'ra o'zbek edi. Albatta, u xon bilan bir xil urug'dan, ya'ni Qiyot-Qo'ng'irot urug'idan bo'lgan.

Xiva xonligi saroyidagi mansab va lavozimlarni o'rganganimizda, ularning soni 100 dan ortiq bo'lganini ko'ramiz. Albatta, ularning barchasini bitta maqolada tasvirlab berish ancha murakkab.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida davlat boshqaruvi xon hokimiyati atrofida shakllangan bo'lib, ma'muriy va diniy mansablar uning muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Har bir mansabdor davlat boshqaruvi, sud-huquq ishlari, soliq yig'imi va diniy hayotning muayyan yo'nalishlarida faoliyat yuritgan. Ushbu mansablar tizimi Xiva xonligining siyosiy va ijtimoiy hayotini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlari). Toshkent: "Sharq", 2019-yil. 38-bet.

2. Vamberi A. O'rta Osiyo bo'ylab sayohat. Moskva: "Vostochnaya literatura", 2003-yil 69-bet.
3. Blankenagel. 1793–1794-yillarda Orenburgdan Xivaga qilgan safaridan keyingi qaydlar. Sankt-Peterburg: Harbiy-dengiz vazirligi bosmaxonasi, 1858-yil.
4. Ivanin M. I. Xiva va Amudaryo. Sankt-Peterburg, 1873-yil 153-bet
5. Bazinep. Sayohat, 1822, II qism, 26-bet; 2006-yil. 72-bet.
6. O'rta Osiyodagi qo'shnilarimiz. Xiva va Turkmaniston. Sankt-Peterburg: "Obshchestvennaya polza" bosmaxonasi, 1873-yil. Tegishli bet.
7. Muravyov N. 1819 va 1820-yillarda Turkmaniston va Xivaga sayohat. Muzokaralar olib borish uchun ushbu mamlakatlarga yuborilgan Gvardiya Bosh shtabi kapitani Nikolay Muravyovning safar xotiralari. I qism. Moskva: Avgust Semyon bosmaxonasi, 1822-yil.